

## ZAMONAVIY DAVRDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING IMKONIYATLARI VA ISTIQBOLLARI

**Xoliqova Zebiniso Rustamovna**

*Farg'ona ICHSHUI kasb-hunar maktabi  
maxsus fan o'qituvchisi*

**Anotatsiya:** *Zamonaviy davrda raqamli iqtisodiyotning imkoniyatlari va istiqbollari haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiya, oddiy iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot belgilari, raqamli iqtisodiyot qulayliklari, elektron to'lov*

Hozirgi vaqtda kompyuterlashtirish va yuqori texnologiyalar asrida raqamli iqtisodiyot hayotimizning har bir jabxasiga: sog'liqni saqlash, ta'lim, internet-banking, xukumatga daxldor bo'lmoqda.

Iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi sanoat, hizmat ko'rsatish soxasi va qishloq xo'jaligini ravnaq toptirish, tadbirkorda tashabbuskorlik ruxini kuchaytirish, moliyaviy resurslar bilan ta'minlash kabi omillarga asoslanadi.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo'limida ta'lim tizimi, mehnat bozori hisobiga inson kapitalini rivojlantirish, axolining barcha qatlamlarini sifatli tibbiy xizmat bilan qamrab olish, ilm-fan innovatsiyalarini rivojlantirish orqali odamlarning sog'lig'ini yaxshilash ko'rsatkichini oshirish, ijtimoiy himoya, atrof-muxitni asrash, ilg'or va sog'lom fikrlaydigan yangi avlodni tarbiyalash, mamlakatning milliy brendini halqaro miqiyosda ommalashtirish kabi maqsadlar bayon etilgan.

O'zbekistonni 2035 yilgacha rivojlantirish strategiyasi Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi bo'lib, yurtimiz taraqqiyotida yangi saxifa ochish bilan ahamiyatlidir. Strategiya loyixasida belgilangan marralarga erishish uchun har bir soxada olib borilayotgan isloxlarni bosqichma-bosqich, anik muddatlarda ro'yobga chiqarish prognozlarini ko'rsatilgan.

Harakatlar strategiyasini 2035 yillarga qadar amalga oshirilishida raqamli iqtisodiyot muxim rol o'ynaydi.

Raqamli iqtisodiyot paydo bo'lishining sabablari va maqsadlarini tahlil qilish, raqamli iqtisodiyot faoliyatini qo'llab-quvvatlashga hizmat qiladigan usullar va texnologiyalarni tadbiq etish muxim omil bo'lib xisoblanadi.

Iqtisodiy jarayonlarni raqamlashtirish nafaqat bevosita axborot kommunikatsiya tarmog'ini balki mamlakat ho'jalik faoliyatining barcha soxalarini qamrab oladigan keng miqiyosdagi tendensiyaga aylanib boradi, jumladan onlayn-savdolarni amalga oshirish, raqamli qishloq ho'jaligi, avtomatlashtirilgan "aqli" elektr-tarmoq tizimlari, inson omili boshqaruvisiz transport vositalari, shaxsiylashtirilgan sog'liqni saqlash va xokazolar raqamli iqtisodiyot inqilobi zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Raqamli iqtisodiyot – bu g’oya Jaxon banki tomonidan 2016 yil “Jaxon taraqqiyoti haqida ma’ruza-2016: raqamli dividendlar” ma’ruzasida ma’lum qilingan. Jaxon banki mamlakatda raqamlashtirishning ochiq ma’lumotlar, elektron xukumat tizimi, “Yandeks” va “Kasperskiy” kabi raqamli gigantlar, onlayn buyurtma xizmatlari, axborot texnologiyalari yordamida mulk xuquqini ro’yxatdan o’tkazish muddatining 10 kunga qisqarishi kabi

belgilarni ko’rsatadi.

Shu bilan bir vaqtda alohida tarmoqlar va mamlakat mintaqalari kesimida raqamli iqtisodiyot afzalliklarini amalga oshirish oqibatlarini baholash bilan bog’liq bir qator masalalarni hal etish zaruriyatini keltirib chiqaradi. “Raqamli iqtisodiyot” - bu real voqelikni to’ldirib turadigan virtual muxitdir”.

Shu sababli O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 noyabrda qabul qilingan qarorida ta’kidlanishicha: “Raqamli Iqtisodiyotni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, davlat boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy infratuzilmani qo’llash muxim ahamiyatga ega” deb ko’rsatilishi raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish infratuzilmasini amalga oshirish maqsadini ko’zda tutadi.

Buyuk Britaniya – raqamli iqtisodiyot soxasida yetakchilardan biri bo’lib hisoblanadi. G’arb tadbirkorligi yangi kommunikatsiya vositalarini birinchilardan bo’lib, faol o’zlashtirgan holda imkoni bo’lgan hamma narsani raqamlashtirdi, xukumatdan elektron raqamli imzoni qonunchilik bilan rasmiylashtirishga erishdi, nafaqat biznes-hamjamiyati ichida balki davlatda ham raqamli aloqani yo’lga qo’ydi, davlat idoralari ham o’z axborot tizimlarini asta-sekinlik bilan raqamli jarayonga integratsiya qildilar.

Iqtisodiy “raqamlashtirish”ning uchta asosiy tarkibiy elementlari mavjud bo’lib ular qo’yidagilardan iborat:

- birinchidan, axborot to’plash va tahlil qilish, ma’lumotlarni to’g’ri topish va ular bilan sifatli ishlash uchun bu maqsadda nima qilish kerakligini tushunib yetish;

- ikkinchidan, birinchi o’rinda ishlab chiqaruvchi emas, balki iste’molchi extiyojalri xisoblanishi kerak. Raqamli ma’lumotlar nuqtai nazaridan aynan “extiyojlar” ko’rib chiqilayotgan tushunchada “iqtisodiyot” o’zini ifodalashi. Ya’ni biz oddiygina bir iste’molni har bir kishi uchun umumiy qulay boshqariladigan hududga o’tkazishga qodir bo’ladigan salohiyatli tizimni ko’lga kiritamiz.

- Uchinchidan, boshqaruv. “Raqamli iqtisodiyot” atamasidagi uchinchi element inson ko’ziga ko’rinmaydi. Biroq bizning holatda “mashina nigoxi”ni e’tiborga olish “raqamli” va “iqtisodiyot” so’zlari orasidagi “ko’rinmas” bo’shliqni ifodalaydi.

Bu ikki tushunchaning barqaror uyg’unlashuvi tufayli xatto uzliksiz bo’shliq haqida gapirish ham mumkin bo’ladi.

Boshqaruv (professional kadrlar) – o’zaro aloqalarni boshqarishning malakali tizimi bo’lib, nazariya va amaliyotda insoniyatning o’sib borayotgan

extiyojlarini qondirish borasida ma'lumotlardan faol foydalanish bo'yicha keng ko'lamli faoliyatni bashorat qilish, rejalashtirish, tashkil qilish, ijro etish, nazorat qilish va muvofiqlashtirishni ko'zda tutadi va bu tizim bugungi kunda, aftidan, bungacha misli ko'rilmagan darajada har tomonlama – ilmiy, uslubiy, texnologik, axborot, instrumental, kreativ va xokazolarni qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadi. Iqtisodiyotning raqamli segmenti mamlakat iqtisodiyoti va jamiyatda ro'y bergan sifat o'zgarishlari tufayli dolzarb ahamiyat kasb etadi. Yangi texnologiyalar va yo'nalishlar jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar menejmentiga tobora katta ko'lamda o'zaro aloqalarda transaksiya xarajatlarini qisqartirish hamda davlat tarkibiy tuzilmalari va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bilan uzviy aloqalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi.

Shu sababli iqtisodiyotning barcha soxalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak, deb ta'kidlaydi Prezidentimiz

Sh.M.Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida, shu asosda "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturini hayotga tadbiiq etishimiz zarur. Natijada YaIM ni kamida 30 foizga o'stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi.[1]

Natijada tarmoq servislariga asoslangan, ya'ni raqamli yoki elektron iqtisodiyot shakllanadi. Raqamlashtirish tushunchasi o'zi buyumlar internetidan tortib elektron xukumat texnologiyalarigacha bo'lgan zamonaviy axborot texnologiyalarini "yoppasiga" qo'llash asosida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishini boshqarish va ishlab chiqarishning o'zini takomillashtirishning yangi bosqichidan dalolat beradi. Iqtisodiyotning raqamli segmentini kengaytirishning asosiy sababi transaksiya sektorining o'sishi hisoblanadi, u rivojlangan mamlakatlarda milliy YaIM ning 70 foizdan ortig'ini tashkil qiladi. Bu sektor tarkibiga quyidagilar kiradi: davlat boshqaruvi, konsalting va axborot xizmatlari ko'rsatish, moliya, ulgurja va chakana savdo, shuningdek, turli kommunal shaxsiy va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish.[2]

Iqtisodiyotda dinamika va diversifikatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakat ichkarisida va tashqarisida shunchalik katta hajmdagi noyob ma'lumotlarga aylanadi, mos ravishda milliy iqtisodiyot doirasida kattaroq axborot trafigi vujudga keladi. Shu sababli raqamli iqtisodiyot Axborot Kommunikatsion Texnologiyalari (AKT) xizmatlarining kirib borish darajasi yuqori va qatnashchilar soni ko'p bo'lgan bozorlarda eng samarali faoliyat ko'rsatadi. Texnologik jixatdan raqamli iqtisodiyotni to'rtta trend belgilab beradi: mobil texnologiyalar, biznes taxlillar, muhim hisob natijalari va ijtimoiy media; global jixatdan - Fasebook, Youtube, Twitter, Instagramm kabi ijtimoiy tarmoqlar.

Bu esa shuni anglatadiki, milliy segmentni shakllantirishda ularning imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda dunyoda raqamli iqtisodiyot xodisasini umumiy bir tushunchasi mavjud emas, shunday bo'lsada, ko'plab ta'riflar keltirilgan. Ushbu fenomenga davlat

tomonidan berilgan rasmiy ta'rif quyidagicha: raqamli iqtisodiyot – ularni taxlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmda qayta ishlash an'anaviy ho'jalik yuritish shakllari bilan taqqoslaganda har xil turdagi ishlab chiqarishlar, texnologiyalar, asbob uskunalar, tovarlar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini oshirishga imkon beradigan raqamli ko'rinishdagi ma'lumotlar asosiy ishlab chiqarish omili sanalgan ho'jalik faoliyatidir.

Bir tomondan ushbu ta'rifni to'g'ri deb izoxlashimiz mumkin lekin uzil-kesil ta'rifning yo'qligi ko'plab xususiy va tor ixtisosli savollarni muxokama qilish uchun to'siq hisoblanmaydi.

“Raqamli” iqtisodiyot – bu gibriddunyo sharoitlarida mavjud bo'ladigan iqtisodiyotdir. “Raqamli” (elektron) iqtisodiyot – bu axborot jumladan, shaxsiy axborotdan foydalanish hisobiga barcha qatnashchilarning ehtiyojlarini yuqori darajada qondirish uning o'ziga xos xususiyati bo'lgan iqtisodiyotdir. [3]

Bu axborot – kommunikatsiya va moliya texnologiyalarining rivojlanganligi, shuningdek, birgalikda gibriddunyoda barcha iqtisodiy faoliyat sub'ektlari – tovarlar va xizmatlar yaratish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qilish jarayoni ob'ektlari va sub'ektlarining to'laqonli o'zaro aloqa qilish imkoniyatini ta'minlaydigan infratuzilma ochiqligi tufayli aloxida o'ringa ega bo'lishi mumkin. “To'laqonli” o'zaro aloqa qilish uchun barcha iqtisodiyot ob'ektlari va sub'ektlari sezilarli raqamli tarkibiy qismlarga ega bo'lishi lozim.

«2020 yil – Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyot yili» deb e'lon qilindi. Shundan keyin fuqarolarda «raqamli iqtisodiyot» atamasi haqida ko'plab savollar tug'ila boshladi. Quyida ularning eng muhimlariga aniqlik kiritamiz.

Raqamli iqtisodiyot bu- iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida amalga oshirish tizimidir.

Ba'zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi. Xo'sh, raqamli iqtisodiyotning oddiy iqtisodiyotdan farqi nimada? Deylik, xaridorga poyafzal kerak. Uni bozorga tushib, o'zi bevosita tanlasa va naqd pulga sotib olsa, bu an'anaviy iqtisod. Telegramdagi biron savdo boti orqali o'ziga ma'qul tovarni tanlab, tovar egasiga pulni elektron to'lov tizimi orqali to'lash va tovarni yetkazib berish xizmati orqali olish – raqamli iqtisodiyot deyiladi. Bu – masalaning eng soddasi, maishiy misoli. Aslida, hammamiz allaqachon raqamli iqtisodiyot ichidamiz, uning qulayliklaridan foydalanamiz. Masalan, oyliklarimiz plastik kartalarga tushadi, elektron to'lov orqali kommunal xizmatlar, telefon, internet, boshqa mahsulot va xizmatlarga to'lov qilamiz, elektron tarzda soliq deklaratsiyasi topshiramiz, kartadan kartaga pul o'tkazamiz, uyga taom buyurtma qilamiz va hokazo.

Raqamli iqtisodiyot, bu – noldan boshlab yaratilishi lozim bo'lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish hamda ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir. Uning belgilari quyidagilarda aks etadi:

- yuqori darajada avtomatlashtirilganlik; -elektron hujjat almashinuvi;
- buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi;
- ma'lumotlar elektron bazalari;
- CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi;
- korporativ tarmoqlar.

Raqamli iqtisodiyotning bir qator qulayliklari ham mavjud bo'lib, ular:

1. To'lovlar uchun xarajatlar kamayadi (masalan, bankka borish uchun yo'lkira va boshqa resurslar tejaladi).
2. Tovarlar va xizmatlar haqida ko'proq va tezroq ma'lumot olinadi.
3. Raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta.
4. Fidbek(iste'molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi.
5. Tezroq, sifatliroq, qulayroq.

Raqamli iqtisodiyot insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu uning asosiy foydasidir. U korrupsiya va «qora iqtisodiyot»ning asosiy kushandasidir. Chunki raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma'lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma'lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to'liq axborot bermaslikning iloji yo'q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo'yadi. Ma'lumotlar ko'pligi va tizimliliigi yolg'on va qing'ir ishlarga yo'l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz. Natijada «iflos pullar»ni yuvish, mablag'larni o'g'irlash, samarasiz va maqsadsiz sarflash, oshirib yo yashirib ko'rsatish imkoni qolmaydi. Bu esa iqtisodiyotga legal mablag'lar oqimini oshiradi, soliqlar o'z vaqtida va to'g'ri to'lanadi, budjet taqsimoti ochiq bo'ladi, ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan mablag'lar o'g'irlanmaydi, maktablar, kasalxonalar, yo'llarga ajratilgan pullar to'liq yetib boradi va hokazo. Davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lini tanlaganligi axborot texnologiyalari sohasida va umuman, elektron hujjatlar aylanmasi sohasida yangi yo'nalishlar ochib beradi. «Raqamli texnologiyalar» tomon burilishga butunjahon internet tarmog'i va sifatli aloqaning rivojlanishi sababchi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish sohasida vakolatli organ hisoblanadi. Bundan tashqari, Iqtisodiyot, Moliya, Axborot texnologiyalari, Adliya vazirliklari va boshqa qator davlat tuzilmalari raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun o'ziga xos mas'uliyat va vazifalarga ega organlar hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risidagi Farmoni. 2020 yil 2 mart.
2. Hamdamov R., Begimqulov U., Tayloqov N. Ta'limda axborot texnologiyalari. Oliy ta'lim muassasalari uchun / R.Hamdami, U.Begimqulov,
3. Ayupov R.X. , Baltabaeva G.R. Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. –T: Fan va texnologiya, 2018
4. Гордеева И.В., Мультимедиа технология, Новосибирск СГГА, 2010, – 158 с.
5. Набиулина Л.М., Абдурахманова Ш.А. Мультимедийные системы и технологии. Учебник. – ГРИФ № 603-161.–Т.: Навруз, 2019. – С.160.
6. Gulyamov S. S., Abdullaev O. M. Iqtisodiyotda zamonaviy axborot tizimlari va texnologiyalari. T.:Impress Media, 2018.